

"Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlandi



Adiz Boboyev: Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filialida aholiga xizmat ko'rsatish uchun sharoit yaratilganmi?



2026-yil uchun zakot, fitr va fidya miqdori belgilandi



"Samarqand - Olmaota" yo'nalishida aviaqatnov yo'lga qo'yiladi





1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 18-fevral, chorshanba,
15 (24.195)-son

O'zbek xalq maqoli

Yomon
so'zning
qanoti bor

Zarafshon

www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

Viloyat hokimi deputatlikka saylandi

15-fevral kuni xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o'tkazuvchi 58-Jozmon saylov okrugi (Urgut tumani)da bo'shab qolgan o'ringa deputatlik saylovi o'tkazildi.

17-fevral kuni viloyat hududiy saylov komissiyasi ushbu saylov natijalari to'g'risida qaror qabul qildi.

Unga ko'ra, saylovda Tadbirkorlar va ishbilarmonlari harakati – O'zbekiston-liberal demokratik partiyasi viloyat kengashi tomonidan ko'rsatilgan nomzod, viloyat hokimi Adiz Boboyev boshqa nomzodlarga nisbatan eng ko'p ovoz olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati etib saylandi va deputat sifatida ro'yxatga olindi.

Hududiy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan deputatga belgilangan tartibda guvohnoma va ko'krak nishoni beriladi.

RO'ZADA NARX OSHMAYDI

Davlatimiz rahbarining topshirig'iga ko'ra, Ramazon oyi munosabati bilan mamlakatimizdagi barcha bozor va yirik savdo majmualarida arzonlashtirilgan oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkalari tashkil etilmoqda.



Jumladan, Samarqand shahridagi "Siyob dehqon bozori"da ham xuddi shunday savdo yarmarkasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu yerda kartoshka, sabzi, karam, guruch, mosh, no'xat, tuxum, o'simlik yog'i, guruch, makaron kabi oziq-ovqat mahsulotlari nisbatan arzon narxlarda sotilmoqda. Belarus davlatidan keltirilgan go'sht va go'sht mahsulotlari 70-75 ming so'mdan, o'zimizda yetishtirilgan go'sht esa 100-120 ming so'mdan sotilmoqda.

– Ramazon oyida bozorlarimizda narx-navo barqarorligini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan yarmarkadagi mahsulotlar boshqa savdo nuqtalaridagiga nisbatan arzon narxda sotiladi, – deydi "Siyob dehqon bozori" MChJ direktori Shohruh Alibekov. – Viloyatimizda tumanlar hokimliklari bilan bir oy davomida bozorga arzon mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha kelishib oлдik.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Ramazon

mehr-muruvvat, ahillik va shukronalik oyi



Butun islom olami uchun muqaddas bo'lgan Ramazon oyi boshlanmoqda. Qalblar poklanadigan bu muazzam oyda muqaddas dinimizga xos eng ezgu qadriyatlar – bag'rikenglik va mehr-muruvvat, saxovatpeshalik namoyon bo'ladi. Davlatimiz rahbarining 16-fevral kuni qabul qilgan qaroriga ko'ra, yurtimizda 19-fevraldan boshlanadigan muborak Ramazon oyini munosib o'tkazish yuzasidan chora-tadbirlar belgilandi.



Bu yil ushbu muborak oy "Ramazon – mehr-muruvvat, ahillik va shukronalik oyi" degan ezgu g'oya asosida o'tkaziladi.

Oy davomida kam ta'minlangan, ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi, mahallalarni o'zaro hurmat, hamjihatlik, adolat va tarbiya maskaniga aylantirish borasidagi ishlar kuchaytiriladi, muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh va qabristonlar obod etiladi. Bu ishlarining barchasi Ramazonning mazmun-mohiyatiga to'la mos keladi. Bino-barin, Ramazonida qilingan sadaqaning savobi bir necha barobar qilib beriladi. Kam ta'minlangan, bemor, ehtiyojmand insonlar xolidan xabar olish bu oyinging eng go'zal amallaridandir. Avvalo, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug' xolidan xabar olib, ularning ko'nglini shod etishimiz, yetim-yesirlar, keksalar va nogironlar, bemorlar xolidan xabar olib ularga silayi rahm ko'rsatsak, tutgan ro'zamiz savobi bir necha karra ko'p bo'ladi, inshoolloh.

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam marhamat qilganlar: «Kim Ramazon ro'zasini imyon va savob umidida tutsa, uning avvalgi gunohlari mag'firat qilinadi». Demak, Ramazon – mag'firat, yangilanish va Allohga yaqinlashish oyi.

Ramazonning asosiy maqsadi — taqvo. Ya'ni insonning qalbi poklanishi, nafs tarbiyasi, halol-haromni anglab yashashi va Allohga yaqinlashishidir. Ro'za insonni yashirin va oshkora holatlarda ham o'zini nazorat qilishga

o'rgatadi. Ochlik va chanqoqlik orqali nafs sinaladi, iroda mustahkamlanadi. Ramazon nafaqat ochlik, balki qalb tarbiyasi, gunohdan poklanish va Allohga yaqinlashish o'yidir. Bu oyda inson o'zini faqat yeb-ichishdan emas, tilni yomon so'zdan, ko'zni haromdan, quloqni g'iybatdan, qalbni kibr va hasaddan saqlashi lozim. Binobarin ulamaolarimiz aytganidek, haqiqiy ro'za – butun a'zolarining ro'zasidir.

Qarorda Ramazon oyi bilan bog'liq tadbirlarni isrofgarchilikka yo'l qo'ymasdan, ixcham, mazmunli va tejamkorlik asosida o'tkazishga alohida e'tibor qaratish belgilangan. Albatta, Ramazon isrof oyi emas. Afsuski, ba'zan iftorlik dasturxonlari daddaba va manmanlikka aylanib ketmoqda. Bu esa muborak oyingning ruhiga tamomila ziddir. Kuni bilan och yurdim, deb iftorlik yoki saharlikda juda ko'p ovqat yeyish inson salomatligiga ham jiddiy xavf soladi. Bir kosa ovqat, bir burda non bilan ham nafsni qondirish, iftorlik qilish mumkin. Ro'za ibodatining mazmuni faqat och yurish emas, ixlos va shukrdir. Baraka ham qanoatda, isrof barakani keltkazadi.

Mo'min-musulmonlarning Ramazon oyi ibodatini to'la to'kis, munosib sharoitda ado etishlari uchun masjidlarimizda barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Muborak oy arafasida masjidlar va ular atrofi obod qilindi, xavfsizli va jamoat tartibini saqlash yuzasidan mutasaddi idoralar tomonidan zarur choralar ko'rildi. Bir oy davomida viloyatimizdagi 288 ta jome masjidida taroveh namozi o'qiladi, 204 ta masjidda Qur'on xatm qilinadi. Xatmonalarda 370 nafar qori ishtirok etib, Qur'onning nozik tilovati bilan masjidlarimizga nur, fayz va ma'naviy muhit bag'ishlaydilar.

Muborak Ramazon oyi barchamiz uchun rahmat va mag'firat oyi bo'lsin. Alloh taolo tutgan ro'zalarimizni, qilgan ibodatlarimizni dargohida qabul qilib, yurtimizga tinchlik, xonadonlarimizga fayzu baraka ato etsin! Ramazon muborak bo'lsin!

Ahmadxon ALIMOV,
viloyat bosh imom-xatibi.

Ilgari muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilar ro'yxatini shakllantirish faqat mudofaa ishlari bo'limlarining zimmasida edi. O'tgan yilgi chaqiruv mavsumidan ushbu mas'uliyatli vazifa mahallalardagi yoshlar yetakchilariga yuklatildi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-iyuldagi «Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qaroriga ko'ra, yoshlar yetakchilari o'z hududidagi yoshlar soniga qarab, uch nafardan besh nafargacha chaqiruv yoshidagi yigitlarni muddatli harbiy xizmatga jalb qilishi belgilangan.

– Mahallalardagi yoshlar yetakchilari muddatli harbiy xizmatga har tomonlama yetuk, sog'lom, jismonan baquvvat, jamoat ishlarida faol, intellektual salohiyatli yoshlarni yuborish bo'yicha tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlariga amaliy yordam ko'rsatmoqda, – **deydi yoshlar ish-lari agentligi viloyat boshqarmasi mas'uli Muslimbek Choriyov.**

– Jumladan, yetakchilar yil davomida mahalla yoshlari orasidan Vatanga sadoqatli, har tomonlama yetuk, sog'lom, muddatli harbiy xizmatni o'tash istagida bo'lgan kamida 3-5 nafar yoshlar haqidagi ma'lumotlarni "Yoshlar balansi" platformasiga kiritib bormoqda. O'tgan yil ushbu tizim asosida viloyat bo'yicha 2500 nafardan ziyod yoshlar muddatli harbiy xizmatga yuborilgan. Joriy yilda ham har bir mahalladan 10 nafardan talabgorlar ro'yxati shakllantirilmoqda.

– Mahallamizda chaqiruv yoshiga yetgan yoshlar bilan tizimli ishlar olib borilmoqda, – **deydi Past Darg'om tumanidagi Chimboy mahallasi yoshlar**

Askar armiyada kasb-hunar o'rganadi



yetakchisi Shohrux Abduazimov. – O'tgan yil mahalla raisi, profilaktika inspektori, jamoatchilik faollari va ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiyasi, jismoniy tayyorgarligi, ta'lim darajasi hamda jamoat ishlaridagi faolligi bilan namuna ko'rsatib kelayotgan 20 nafar yosh saralab olinib, tuman mudofaa ishlari bo'limiga taqdim etildi. Natijada ularning 15 nafari armiya saflariga jo'natildi. Xizmatga ketgan yigitlarning ikki nafari harbiy bo'lish istagini bildirib, harbiy qismga hujjatlarini topshirgan. Qolganlari oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish va jamoat tartibini saqlash organlarida faoliyat yuritishni maqsad qilgan. Ular xizmatdan qaytgach, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, tegishli sohalariga yo'naltirilishi re-

jalashtirilgan. Joriy yilda uch nafar yosh muddatli harbiy xizmatga, ikki nafari esa safarbarlik chaqiruv rezerviga nomzod sifatida saralab olingan.

Chaqiriluvchilarning barchasi umumijismoniy tayyorgarlikni aniqlash sinovlari hamda yakka tartibdagi suhbatdan o'tadi. Bunda belgilangan normativlar – turnikda tortilish, 100 metr va 3 kilometr masofaga yugurish, yakka tartibdagi suhbatda chaqiriluvchilarning mahalla va jamiyat hayotidagi ishtiroki, madaniyati, qiziqishlari, O'zbekiston tarixi, buyuk sarkardalarimiz va ajdodlarimiz hayoti va faoliyatiga oid bilimlari baholalanadi. Yakunda sinov natijalari umumlashtirilib, chaqiriluvchiga harbiy xizmatga tavsiya beriladi yoki belgilangan me'yorlar bajarilmasa, rad etiladi.

Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tavsiyanomalar berish tartibi to'g'risidagi nizomga ko'ra, uni xizmat davomida jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik bo'yicha yuksak natijalarga erishgan, zarur bilim saviyasiga ega, namunal harbiy intizomini namoyon etgan harbiy xizmatchilar oladi. Tavsiyanomaga ega bo'lgan fuqarolar respublikamizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi tegishi ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirishda test sinovlari natijalariga ko'ra o'zlari to'plagan balning 50 foizi miqdorida qo'shimcha ball

shaklidagi imtiyozga ega bo'ladi. Respublikaning boshqa oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga o'qishga kirish uchun esa ular oliy ta'lim muassasalariga qabul parametrlaridan tashqari ajratiladigan alohida qabul ko'rsatkichlari doirasidagi tanlovda ishtirok etadi.

– Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni muddatli harbiy xizmatning yangi modeli shakllantirilishi hamda askarlarga yana bir qator imtiyozlar berilishini ta'kidladi, – **deydi viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i, polkovnik Burhon Quvvatov.**

– Yangilanayotgan tizimga ko'ra, har bir harbiy xizmatchi armiyadan qaytayotganda muayyan kasbiy ko'nikmaga ega bo'ladi. Ya'ni, endi askarlar xizmat davrida o'z qiziqishlariga qarab, kasb-hunar, xorijiy tillarni o'rganadi. Shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o'tash jarayonida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Harbiy xizmatni tugatgandan so'ng esa ularning ta'lim olishi qo'llab-quvvatlanib, sertifikat xarajatlari qoplanadi hamda foizsiz ta'lim kreditlari ajratiladi. Eng muhimi, muddatli harbiy xizmatdan qaytgan yoshlarning tadbirkorlik faoliyati qo'llab-quvvatlanadi va ularni ishga joylashtirishda qo'shimcha imtiyozlar beriladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bu yilgi chaqiruv mavsumida viloyat bo'yicha **2600 nafar yoshlar muddatli harbiy xizmatga yubirildi. 15-fevraldan** chaqiriluvchilar uchun tuman va shaharlarda, **20-fevraldan** esa viloyatda hududiy-tibbiy komissiya boshlanib, **mart** oyidan yigitlar harbiy xizmatga o'tlanadi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV,
"Zarafshon" muxbiri.

2025-yil mahalliy vakillik hokimiyati organlari, jumladan, xalq deputatlari Narpay tuman Kengashi uchun mazmunan yangi bosqich bo'ldi. Kengash faoliyatini takomillashtirish, deputatlik nazoratini kuchaytirish, aholi muammolarini hal etishga qaratilgan qarorlar qabul qilish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Barcha sa'y-harakatlar zamidida esa "xalq manfaatlari — eng oliy qadriyat" degan tamoyil mujassam bo'ldi.



Xalq manfaatlari yo'lida

Yil davomida Kengash sessiyalarida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir muhim masalalar muhokama qilindi. Xususan, mahalliy budjetning shakllantirilishi va ijrosi, infratuzilmani yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kambag'allik va ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar deputatlar diqqat markazida bo'ldi. Qabul qilingan qarorlar ijrosi yuzasidan mutasaddi rahbarlarning hisobotlari tinglanib, aniq vazifalar belgilab berildi.

Bunga tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi, qurilish bo'limi, elektr ta'minoti, yo'llardan foydalanish davlat muassasasi, kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi, sog'liqni saqlash bo'limi mutasaddilarining hisobotlarini misol qilib keltirish mumkin.

Doimiy komissiyalar tomonidan joylarga chiqib o'rganishlar o'tkazilib, ijtimoiy soha, ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xizmatlar, yo'l va transport infratuzilmasiga oid masalalar atroflicha tahlil qilindi. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tegishli tashkilot va idora rahbarlariga taqdimnomalar kiritilib, ularning bartaraf etilishi nazoratga olindi.

Shu o'rinda qayd qilish lozim, Savdo-sanoat palatasi Narpay tuman bo'limi boshlig'i va Narpay tuman iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati rahbariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlashdagi sustkashligi uchun "hayfsan" berilgan.

Deputatlar o'z saylov okruglarida fuqarolar qabullarini muntazam o'tkazib, murojaatlarni o'rgandi. Murojaatlar va jamoatchilik eshituvlari orqali aholining fikr-mulohazalari inobatga olindi. Bu esa Kengash qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Yil davomida 76 marotaba deputat so'rovlari chiqarilib, ularda ko'tarilgan masalalar ijobiy hal etildi. "Samarqand suv ta'minoti" MChJ Narpay tuman filiali boshlig'iga deputat so'roviga o'z vaqtida javob qaytarmagani uchun "hayfsan" jazosi qo'llanilgan.

Ta'kidlash o'rinli, Ne'matilla Tangriyev, Risolat Husanova, Nabi Shomurayev, Marhabo Jabborova, Hakim Rasulov, Uchqun Mo'minov, Otamurod Qarshiyev va boshqalar o'z saylov okruglaridagi saylovchilar bilan uchrashib, hududidagi muammolarni mas'ul tashkilotlar bilan hal qilishda boshqalarga ibrat bo'lmoqda.

Hisobot

Fuqarolik jamiyati institutlariga ajratilgan mablag'lar nimalarga sarflandi?

Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondning Samarqand viloyati bo'linmasiga 2025-yilda jami 5 milliard 526 million so'm pul mablag'i ajratildi. Tegishli qarorlarga ko'ra, ajratilgan mablag'lar fuqarolik jamiyati institutlarini davlat subsidiyasi, davlat ijtimoiy buyurtmasi va davlat granti shaklida qo'llab-quvvatlash va hududiy bo'linmaning ma'muriy xarajatlari uchun taqsimlangan. Xususan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati hududiy bo'limlari, ko'zi ojizlar, karlar jamiyati, Nogironlar assotsiatsiyasi hududiy bo'limlariga jami 3798,3 million so'm ajratildi.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi uchun jami 3 milliard 450 million so'm sarflandi. Ushbu mablag'lar avvaldan o'rganib, aholi ehtiyojlari bo'yicha surishtiruvlardan keyin aniqlangan muammolar-ni hal



etish uchun yo'naltirilgan. Jumladan, fond moliyaviy ko'magida Bulung'ur tumanida axborot-kutubxona markazi bunyod etildi. Toyloq tumanidagi Chorvoqtepa, Taraqqi-yot, Xo'jayuz mahallalari aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha davlat ijtimoiy buyurtmasi tanlov g'olibi deb topildi va belgilangan tartibda 450 million so'mlik shartnomalar imzolandi.

Shuningdek, Jomboy tuman hokimligi davlat ijtimoiy buyurtmasi, ya'ni Jomboy tumani tibbiyot birlashmasi negizida 6 o'rinli bolalar reanitatsiyasi bo'limini tashkil etish bo'yicha Ahmadjon Qurbonov nomli mahalla 3 milliard so'mlik "Sog'lik-tuman boylik" nomli loyihasi g'olib deb topildi. Ushbu loyiha to'liq moliyalashtirildi.

2025-yilda ikkita davlat ijtimoiy buyurtmasi uchun 16 ta ariza, uchta davlat granti tanlovi uchun 46 ta ariza tushgan. G'olib bo'lgan loyihalar uchun Jamoat fondi tomonidan jami 5 milliard 447 million so'm moliyalashtirildi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasining "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi doirasida ham bir muncha ishlar amalga oshirildi.

Avvalo, davlat granti tanlovi yo'nalishlarini ishlab chiqish uchun joylardagi muammolarni o'rganish maqsadida Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Ahmadjon Qurbonov nomli mahalla 3 milliard so'mlik "Sog'lik-tuman boylik" nomli loyihasi g'olib deb topildi. Ushbu loyiha to'liq moliyalashtirildi.

Urgutdagi chegara oldi MAHALLALARDA suv muammosi hal bo'ladi(mi)

Bundan to'qqiz yil oldin Urgut tumanining Tojikiston bilan chegaradosh Chep-Mirzabog'lon mahallasida kursdoshimnikida mehmon bo'lgan edim. Yozning issiq kuni chanqab, undan suv so'radim. U qo'limga idish tutqazib, hovli burchagidagi hovuzni ko'rsatgancha "o'zing olib icha qol", dedi. Loyqa suvni ko'rib, hazil qilyapti deb o'yladim. Ammo u idishni qo'limdan olib, o'sha suvdan avval o'zi ichdi va keyin menga uzatdi. Shunda ushbu hududda ichimlik suvi muammosi borligini angladim. Afsuski, oradan shuncha vaqt o'tgan bo'lsa-da, suv muammosi tumanning eng chekka, chegara oldi hudud aholisini hamon qiynab kelayotgan ekan.

Yaqinda Urgut tumanidagi chegara hududida joylashgan mahallalar aholisi uchun viloyat hokimligining sayyor qabuli tashkil etildi. Unda viloyat va tuman hokimliklari mutasaddilari, tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etib, Chep, Mirzabog'lon va Beshyog'och mahallalari aholisining murojaatlarini eshitdi. Qabul jarayonida aholi tomonidan asosan ijtimoiy xizmatlar, elektr energiyasi, maishiy gaz ballonlari ta'minoti, tibbiy yordam ko'rsatish hamda ichki yo'llarni ta'mirlash masalalari ko'tarildi. Biroq deyarli har ikkinchi murojaat eng og'riqli muammo — ichimlik va oqar suv tanqisligi bilan bog'liq bo'ldi. Biz aholi xonadonlarida bu muammolarga o'zimiz ham guvoh bo'ldik.

Asosiy daromadimiz uzumchilik va chorvachilikdan, — deydi Mirzabog'lon mahallasida yashovchi Qobil Jo'raqulov. — Ammo keyingi yillarda suv tanqisligi sababli dehqonchilik bilan

shug'ullanish deyarli imkonsiz bo'lib qoldi. Hozir esa, hatto, ichimlik suvini ham sotib olishga majburbiz. Chunki Chep mahallasi hududidagi Oqqo'rg'on tog'idan keladigan buloq suvi uch mahallaning o'n mingdan ortiq aholi ehtiyojini qondirmaydi. Bundan tashqari, suv sathining keskin pasayib ketishi quduq qazish va artezian chiqarish ishlarini ancha qiyinlashtirib qo'ydi.

Suv, yo'l va elektr energiyasi mahallamizdagi eng og'riqli masala, — deydi 3200 nafardan ziyod aholi yashaydigan Chep mahallasi raisi Qaytmas Boboyev. — Keyingi yillarda manzilli dastur asosida aholi xonadonlariga olti kilometr suv tarmog'i tortildi. Shuningdek, "Tashabbusli budjet" loyihasi doirasida uchta transformator, 276 ta beton-ustun o'rnatildi. Mahallada suv zaxirasini yaratish uchun hashar yo'li bilan ikkita hovuz ham tashkil etdik. Biroq amalga oshirilgan ishlar muammoga to'laqonli yechim bo'lmayapti. Jumladan, Tojikiston chegarasiga yaqin joylashgan, bir-biriga tutash Chep, Mirzabog'lon, Beshyog'och va Vatkan-Qo'zibek mahallalari aholisi tog'dan keladigan buloq suvini navbat bilan oladi. Afsuski, suv tanqisligi sabab fuqarolar o'rta-sida kelishmovchiliklar ham yuzaga kelyapti.

Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi boshlig'i Sherzod Xoliqov eng chekka hududlarda suv, mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar haqida ma'lumot berdi.

Davlatimiz rahbarining o'tgan yil Urgut tumaniga amalga oshirgan tashrifi davomida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan edi, — deydi Sh.Xoliqov. — Ushbu vazifalar doirasida ijtimoiy soha obyektlarini yaxshilash uchun qariyb 1 trillion 500 milliard so'm mablag' ajratilishi nazarda tutilgan. Jumladan, tumanning chegara oldi hududida joylashgan sakkizta mahalla og'ir toifaga kiritilib, har bir mahallaga respublika budjetidan 2 milliard so'mdan, shuningdek, viloyat mahalliy budjetining orttirilgan qismidan 1 milliard so'mdan mablag' ajratildi. Joriy yilda mazkur mahallalarda infratuzilmani yaxshilash ishlari boshlanadi. Xususan, qo'shni Tojikiston bilan chegaradosh mahallalardagi qariyb 500 gektar yer maydonini suv bilan ta'minlash maqsadida Quyiqishloq va Vatkan mahallalarida suv chiqarish nasoslari ishga tushirilib, tarmoqlar tortiladi. Agar tomorqalarni sug'orish uchun suv keltirilsa, buloq suvi aholining iste'moli uchun yetarli bo'ladi.

F.FAXRIDINOV.

TO'QSONBOSTI — dehqonning yildagi birinchi daromadi

To'qsonbosti — qishki tinim davrida yerdan unumli foydalanish orqali hosil yetishtirish. Bu usul aholini ertaki sabzavot mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash, ichki bozorda narx barqarorligini saqlash va eksport hajmlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Deyarli ishlov berilmasligi, qor ostida yetishtirilishi va yaxshigina daromad olingani uchun ham to'qsonbosti ekin hisoblanadi. Viloyatimizdagi 2026-yil hosili uchun jami 29,2 ming gektar maydonda piyoz, sarimsoqpiyoz va sabzavot ekinlari to'qsonbosti usulida ekildi.

Fermer va qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan 26 ming gektar, dehqon xo'jaliklarida 3,1 ming gektar yerda to'qsonbosti ekinlari parvarishlanmoqda, — deydi viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi bosh mutaxassisi Tolibjon Nabi-yev. — Bu orqali aholini ertaki sabzavot mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash, ichki bozorda narx-navo barqarorligini ta'minlash va eksport hajmlarini oshirishga erishiladi.

Jumladan, Jomboy tumanida 1930 gektar ochiq va bog' qator oralariga to'qsonbosti usulida piyoz, sabzi, osh lavlagi, turli xil ko'katlar, karam ekilgan.

O'n yildan buyon, ya'ni fermer xo'jaligi tashkil etilgandan beri to'qsonbosti ekinlar ekaman, — deydi tumandagi "Nodirov Shavkat zaminini" fermer xo'jaligi boshlig'i Shavkat Nodirov. — Joriy yilda 2 gektar maydonda sabzi va 45 sotix yerda poye piyoz ekdik. Bu usul yerning qishki tinim davrida hosil olish va daromad qilish imkonini beradi. Yana bir qulayligi deyarli ishlov berilmaydi. Hosil "Beshbola Agro Veg" klaster korxonasi bilan tuzilgan shartnoma asosida yetishtirilgan "Bulung'ur Sandvik" qayta ishlash korxonasiga topshirilib, eksportga yo'naltiriladi. Urug'lik, mineral o'g'itni ham zavod beradi va o'simlikka deyarli kasallik tushmaydi. Gektaridan 40 tonnagacha hosil olish imkoniyati tufayli ko'plab xo'jaliklar to'qsonbosti ekin sifatida poye piyoz ekishni afzal ko'rishadi. Hozir aksariyat xo'jaliklar ertaki sabzini ham to'qsonbosti usulida yetishtirishni o'rganib olishdi. Bu yerdan mo'l hosil va yaxshi daromad olish uchun qulay usul.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.



o'tkazilayotgan tanlovlarining asosiy mavzulari sifatida tanlab olindi.

"Bir million" darraxt aksiyasi doirasida viloyatda 2000 tuppa yaqin mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Jumladan, "Yashil makon" umummilliy harakati doirasida bog' barpo etilmoqda. Qariyb 2 gektar maydonga manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Hududlardagi fuqarolik jamiyati institutlari bilan besh marotaba ochiq muloqot tadbirlari tashkil etildi.

Samarqand viloyatida 9 ta jamoatchilik nazorati tadbirlarida ijtimoiy binolarda nogironligi bo'lgan fuqarolar uchun panduslar, bino eshiklarning ostonalari va ulardagi hojatxonalar eshiklari, shuningdek, aeroportda, banklarda, temir yo'l vokzali va avtovokzallardagi kassalar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirildi. Ko'zi ojiz fuqarolar uchun taktil yo'lakchalar o'rnatilishiga erishildi.

Doston MALIKOV, Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi viloyat bo'limi rahbari.

Mahalla hayoti

Bog'imaydon o'ziga xos tarixiy bog' bo'lib, sohibqiron Amir Temurning nevarasi Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan. Bog' sharqdan Cho'ponota (Ko'hak) tepaligi bilan tutashgan. Uning janubiy-g'arbida Mirzo Ulug'bek tomonidan barpo etilgan rasadxona, janubida, Siyob kanali bo'yida Xo'ja Doniyor ziyoratgohi joylashgan. Bog'ning o'rtasidan oqib o'tayotgan Obirahmat arig'i uning yam-yashil, ko'rkam bo'lishiga xizmat qilmoqda. Bog' markazida tarixiy ahamiyatga molik Chilstun masjidi qad rostlagan. Bog'imaydon maskani tarixiy hudud bo'lganligi sabab u haqida ma'lumot olish uchun avvalo, tarixiy manbalarga murojaat etish lozim. Bog'imaydon haqida "Boburnoma" asarida batafsil ma'lumot berilgan.

Rais tashabbuskor bo'lsa...

Ushbu maskan Ko'hak, ya'ni Cho'ponotaning g'arb tomonida joylashgan bo'lib, yaqin yetmish yillik tarixda yettita guzardan iborat bo'lgan. Ulardan biri Bog'imaydon mahallasidir.

Toshpo'lat Rahmatullayev 2019-yildan buyon ushbu mahalla raisi lavozimida ishlab kelmoqda. U mahalla ahlining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish, ko'makka muhtoj oilalar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida samarali mehnat qilmoqda. Muhimi, faoliyati orqali hududda istiqomat qilib kelayotgan 2 ming nafardan ziyod aholi roziligiga erishgan.

2019-2025-yillarda hududda maishiy xizmat ko'rsatish va savdo shoxobchalari, qandolatchilik sexlari, mebel ishlab chiqarish sexi va kutubxona tashkil etilib, 50 dan ortiq ish o'rni yaratildi.

Mahallada ikkita yangi transformator, Afrosiyob ko'chasida svetofor o'rnatildi, ko'chalar tungi yoritkichlar bilan jihozlandi, eski simyog'ochlar yangi temir beton ustunlarga almashtirildi.

2025-yil may oyida viloyat hokimi Adiz Boboyev mahalla faoliyati bilan tanishgach, 7 yil davomida qurilishi cho'zilib kelayotgan ko'p qavatli uyda ishlar jadallashdi, 60-maktab uchun



qo'shimcha bino va sport zal qurilishi davlat dasturiga kiritildi. Mahalla hududidagi Shayx So'xiiy maqbarasini ziyoratgohga aylantirish rejasini ishlab chiqildi.

Shunisi diqqatga sazovorki, mahalladan yuqori tashkilotlarga murojaatlar tushmaydi. Barcha muammolar shu yerning o'zida hal etiladi. "Mahalla yetiligi" vakolatiga kirmaydigan masalalarni hal qilishda mahalla raisi fuqarolarni kerakli tashkilotlarga yuboradi va yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

T.Rahmatullayev 2024-yilda Samarqand shahrida o'tkazilgan "Eng namunali mahalla raisi" tanlovining shahar bosqichida birinchi o'rinni, viloyat bosqichida

ikkinchi o'rinni egalladi. 2025-yilda "Sog'lom turmush tarzi bo'yicha eng namunali oila" tanlovining viloyat bosqichida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Viloyat va shahar nuroniylari hayotida faol ishtiroki uchun 2024-yilda "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Mahalla faollari bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, sayohatlariga chiqishda boshqalarga o'rnak bo'layotir. Ular Buxoro, Xorazm, Toshkent viloyatlari va qo'shni Tojikistonning Dushanbe, Xo'jand, Panjakent shaharlarida hamda Birlashgan Arab Amirliklarida bo'lib qaytishdi.

Zohir HASANZODA.

Sartaroshlik muloqot madaniyatini o'rgatadi

Maktab o'quvchilarini mehnatga, jamiyat uchun foydali kasblarga yo'naltirish ularning kelajakda mustaqil hayot kechirishida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sartaroshlik kasbini maktab o'quvchilariga o'rgatish nafaqat kasbiy ta'lim, balki ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ham samarali vositasi hisoblanadi.

Tarixga nazar tashlasak, sartaroshlik kasbi qadimgi Misr, Yunon va Rim sivilizatsiyalarida ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. U davrlarda soch turmaklari insonning ijtimoiy mavqei va madaniyatini aks ettirgan. Demak, sartaroshlik nafaqat xizmat ko'rsatish, balki estetik tarbiya vositasi ham hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari yosh avlod tarbiyasida ilm va hunarning uyg'unligini alo-



hida ta'kidlagan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy inson baxt-saodatga ilm va hunar orqali erishishini qayd etgan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino bolani yoshlikdan mehnatga o'rgatish, kasb egallash uni dangasalikdan saqlashini aytgan. Alisher Navoiy esa hunarli insonni jamiyatning eng foydali a'zosi sifatida baholab, halol mehnatni yuksak qadriyat darajasiga ko'targan.

Sartaroshlik inson bilan muloqot, xizmat ko'rsatish, xushmuomalalik va mas'uliyatni talab qiladigan kasb bo'lgani uchun o'quvchilar tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kasb bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchi nafaqat soch olish yoki pardozlashni o'rganadi, balki mijoz bilan muloqot qilish, uni tinglash, ehtiyojini anglash, sabr-toqatli bo'lish, tozalik va gigiena qoidalariga qat'iy rioya etish kabi hayotiy ko'nikmalarni ham egallaydi. Bu esa o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga, o'ziga bo'lgan ishonchi va mas'uliyati ortishiga xizmat qiladi.

Shu bois maktab o'quvchilari uchun sartaroshlikka oid amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish ularning kasbga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Dastlab mashq qilish, xavfsizlik va gigiena qoidalarini amalda qo'llash, nogironlar maktablari yoki qariyalar uylariga tashrif uyushtirish orqali xizmat ko'rsatish o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, mehr-shafqat va insonparvarlik tuyg'ularini mustahkamlaydi. Bunday tadbirlar yoshlarni hayotga real ko'z bilan qarashga, shukronalik va bag'rikenlikka o'rgatadi. O'quvchilarni nafaqat sartaroshlik, balki qiziqishiga qarab boshqa kasblarga yo'naltirish orqali ularda mehnatsevarlik, kasbga hurmat, muomala madaniyati va ijtimoiy faollik shakllanadi. Pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg'un qo'llash ta'lim sifatini oshirib, o'quvchining kelajak kasbini ongli tanlashiga zamin yaratadi hamda uni jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, yetuk shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Jahongir ELMURODOV,
Samarqand shahridagi
49-umumta'lim maktabi o'qituvchisi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti quyidagi lavozimlarga tanlov asosida

QABUL E'LON QILADI



KAFEDRA MUDIRI LAVOZIMIGA:

- Parazitologiya kafedrasini;
- Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasini.

KAFEDRA DOTSENTI LAVOZIMIGA:

- Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar kafedrasini;
- Parazitologiya kafedrasini;
- Veterinariya-sanitariya ekspertizasi kafedrasini;
- Hayvonlar genetikasi, urchitish va oziqlantirish texnologiyasi kafedrasini;
- O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish kafedrasini;
- O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar (ingliz tili) kafedrasini.

KAFEDRA KATTA O'QITUVCHISI LAVOZIMIGA:

- Veterinariya jarrohligi va akusherlik kafedrasini;
- Mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi kafedrasini;
- Biotexnologiya kafedrasini;
- Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasini;
- O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar (ingliz tili) kafedrasini;
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasini.

KAFEDRA ASSISTENTI LAVOZIMIGA:

- Hayvonlar anatomiyasi, gistologiya va patologik anatomiyasi kafedrasini;
- Veterinariya jarrohligi va akusherlik kafedrasini;
- Parazitologiya kafedrasini;
- Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya kafedrasini;
- Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya

- kafedrasini;
- Veterinariya-sanitariya ekspertizasi kafedrasini;
- Xususiy zootexniya va yaylov chorvachiligi kafedrasini;
- Mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi kafedrasini;
- O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish kafedrasini;
- Biotexnologiya kafedrasini;
- Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar kafedrasini;
- Iqtisodiyot va menejment kafedrasini;
- Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasini.

KAFEDRA O'QITUVCHISI LAVOZIMIGA:

- O'zbek, rus tillari va adabiyoti (rus tili) kafedrasini;
- O'zbek, rus tillari va adabiyoti (o'zbek tili) kafedrasini;
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport (ijtimoiy-gumanitar fanlar) kafedrasini;
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport (jismoniy madaniyat va sport) kafedrasini;
- Veterinariya farmatsevtikasi, farmakologiya va toksikologiya (kimyo) kafedrasini.

Hujjatlar (ariza, shaxsiy varaqa, 2 dona fotosurat, tarjimai hol, oliy ma'lumot, ilmiy daraja va unvonlar haqidagi diplomlar, oxirgi marta malaka oshirganligi to'g'risidagi hujjat nusxalari, ilmiy ishlar ro'yxati) ushbu e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy muddat ichida qabul qilinadi.

Murojaat uchun manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy. Xodimlar bo'limi. Telefon: +99866-234-93-73.

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzaeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Nasirova Karomatga (2024-yil 26-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzaeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdurahmonov Elyor Jamshidovich notarial idorasida marhum Temirov Sobirjon Ruziyevichga (2022-yil 31-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdurahmonov Elyor Jamshidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. Manzil: Bulung'ur shahri Mustaqillik maydoni.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Normurodov Ma'rufjon Mavlonovichga (2025-yil 8-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurodov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Abdurkarimova Ulbozorga (2024-yil 17-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurodov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Ganiyev Rustamga (2025-yil 27-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Abdurbarov Sabir Salexovichga (2021-yil 17-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzaeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Yuldashev Barotga (2002-yil 6-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzaeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Xaydarov Daniyar Kushbakovichga (2014-yil 4-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Isametdinova Nasiba Sirochevna (2023-yil 1-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros

ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Radjabov Baxromga (2023-yil 22-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Dyugayeva Lyudmila Ivanovna (2025-yil 28-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Egamberdiyeva Lyubetga (2022-yil 26-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Aralova Muqaddam Shamurodovna (2020-yil 24-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Berdiyarov Atayurga (2014-yil 8-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani "Nog'oraxona" MFY.

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Lapasov Xasan Pardayevichga (2025-yil 6-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.


Manzil: Bulung'ur shahri Mustaqillik maydoni.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi "SAM MUSLIM HOSTEL" oilaviy korxonasi (STIR: 310633916) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Urgut tumanidagi "VISTA LIVE TOUR" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311218820) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi Fayziyeva Sora Batirovna yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 41210813820020) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



QORAQASMOQmi yoki QORAOSMOQ?

Joy nomlari bilan bog'liq atamalarni o'zgartirib talaffuz qilish uning ma'nosiga ham ta'sir qilishi mumkin. Yaqinda qishlog'imizga kiraverishda "Xitoybolo" deb yozib qo'yishdi. Shuncha vaqt uni boshqa mazmunda tushungan ekanmiz. Biz bu nomni "Xitoybola" deb talaffuz qilardik.

Ensiklopedik lug'atda "xitoy" turkiy xalqlardan birining nomi sifatida keltirilgan. "Bolo" esa fors-tojikchada "baland", "yuqori" degan ma'nalarni anglatadi. Buni keksalarimiz ham tasdiqlashdi. Qishloqning geografik joylashuvi shu tarzda nom olishiga turtki bo'lgan. Ya'ni, u tog'oldi hududda joylashgan. Jomboy tumanida "xitoy" so'zi bilan bog'liq joy nomlari talaygina. Xitoypoyon mahallasi, Xitoy qishlog'i bor. "Xitoy" turkiy qavmlardan birining nomi hisoblanadi. Ularning aynan bu hududga kelib qolishi haqida manbalarda batafsil bayon etilgan.

XI asrda kidanlarning Shimoliy Xitoydagi davlati tugatilgach, bir qismi O'rta Osiyoga ko'chib kelgan. Manbalarda ularni qoraxitoylar deb atashgan.

XVI asrga kelib, xitoylarning bir qismi Shayboniyxon qo'shinlari tarkibiga kirgan. Tarixdan ma'lumki, Shayboniyxon Samarqandni egalashda bugungi Jomboy hududi tomondan yurish qilgan.

Yuqoridagi tilga olingan qishloq shu tariqa vujudga kelgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Demak, "Xitoybolo" balandroqda yashovchi aholi qishlog'i ma'nosini beradi. Uni shu tarzda ifoda etish maqsadga muvofiq.

Jomboydagi Qoraqasmoq qishlog'i ham o'zining tabiati, aholisining mehmondo'stligi bilan ajralib turadi. Bu manzilda Shayx Xudoydodi Valiyning muvofiq ziyoratgohi mavjud. Shuningdek, qadimiy qoyatosh sur'atlariga ham ko'zingiz tushadi. Bu hudud tuman tarixining bir bo'lagidir.

Aholining aytishicha, sobiq tuzum davrida aholining ko'pchiligi paxta yetishtirish uchun majburan quyiroqdagi hududga ko'chirilgan ekan.

Qishloqning "Qoraqasmoq" deb nomlanishi xususida turlicha qarashlar bor.

Xususan, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, adib Abdulim Sulaymon o'g'lining fikricha, tog' etagidagi qishloqning nomi Qoraqasmoq emas, Qoraosmoqdir. Odatda, ayollar taom tayyorlasa, "ovqat qildim", "ovqat osdim" ko'rinishida ifoda etadi. Ziyoratga borgan kishilar bu joyga jonliq olib borib so'yishadi. Jonliq bo'lgan qoramol, qora qo'yni so'ydik, uni osdik, taom tayyorladik, deyishadi. "Qora"ni osib, yeb kelgani uchun bola paytimizda "Qoraosmoq"qa bordik, der edik.

Mamlakatimizning Navoiy, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari tarkibida shunday nomli qishloqlar mavjud. Barчасida aynan "Qoraqasmoq" shaklida uchraydi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi toponimika ilmiy-tadqiqot instituti a'zolari To'ra Nafasov hamda Vazira Nafasova tomonidan nashrga tayyorlangan "O'zbek tili toponimlarining izohli lug'ati"da Nurota tumanidagi Qoraqasmoq qishlog'i misol sifatida keltirilgan. Qolaversa, Qoraqasmoq atamasi ming yillar avval paydo bo'lgan genezis. O'zbek urug'laridan biri bo'lgan Qo'shtamg'alingning bir shoxobchasi Qoraqasmoq hisoblanadi.

Ma'lumot uchun, Qoraqasmoq elati Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib islomni qabul qilgan. Yana bir ma'lumot, Abu Tohirxo'janing "Samariya" asarida G'o'bdin tog'lari haqida qaydlar uchraydi. Jumladan, tarixchi bobomir "Huddun etaklari ushriydir..." deb yozadi. Ushur solig'i islomni qilichsiz qabul qilgan xalqlarga imtiyoz sifatida qo'llangan ma'lum.

Demak, ikki ma'lumotni birlashtirsak, hozirgi G'o'bdin etaklarida ming yilcha avval Qoraqasmoq elati yashagan bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, qishloq nomini Qoraqasmoq shaklida qo'llash haqiqatga yaqinroq.

Zotan, zamonaviy rasmiy hujjatlarda ham Jomboy tumanining Qo'ng'iro't mahallasi tarkibidagi bu qishloq nomi shu shaklda tasdiqlangan.

Dilmurod MAHRAMOV,
"Adolat" SDP viloyat kengashi
raisi o'rinbosari.

Albatta, hammamiz korrupsiyaga qarshimiz va bu illat hayotimizda bo'lmisligini istaymiz. Ammo o'zimiz bilib-bilmagan holda korrupsiyaning yo'qolmasligiga sababchi bo'lamiz yoki "bu ish bilan shug'ullanadigan idoralar bor-ku, men nima ham qila olardim" deb qo'l siltab qo'yamiz.

QANDAY QILIB DEYSIZMI?

Masalan, bolamizni bog'chaga berishni istaymiz. Mavjud tartibga ko'ra, bu ish navbat tamoyili asosida amalga oshiriladi. Lekin biz farzandimiz qisqa vaqtda, uyimiz yaqinidagi maktabga cha ta'lim tashkilotiga chiqishi uchun tanish-bilishni ishga solamiz, hatto buning uchun "to'rt-besh so'm" pul xarajat qilishga ham rozi bo'lamiz.

O'qituvchi toifa olish uchun attestatsiyadan o'tishi zarur. Avvalo, attestatsiya savollari yo'qmikan, qayerdan topsam bo'ladi, deb izlaymiz yoki o'tkazib beradigan odam yo'qmikan, deb qolamiz. Ishga joylashish, pensiyaga ko'proq pul bilan chiqish, davlatning biror bir imtiyozidan foydalanish va yana o'zimizga qulay, moddiy manfaatli ko'plab ishlar borki hamma-sida ishimiz bitishi uchun turli qing'irliklarga tayyor bo'lamiz. Va shu tarzda o'zimiz korrupsiyaga yo'l ochamiz. Yirik korrupsiya holatlari oldida bular arzimasa gap-ku, deyishga shoshilmang, hammasi quyil tizimdagi ana shu kichik ishlardan, maishiy korrupsiyadan boshlanadi. O'tgan yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, korrupsiya holatlarning 75 foizi aynan maishiy korrupsiya bilan bog'liq ekan.

Yaxshiyam hozir yuqoridagi sanalgan va yana boshqa ko'plab sohalarda, umu-

Sayyohlar nega teatrga bormaydi

Viloyatga har yili 2,5-3 milliondan ziyod xorijiy sayyoh keladi. Bu ko'rsatkich viloyatning boy tarixiy merosi, me'moriy yodgorliklari va jahon sivilizatsiyasida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Ammo kuzatuvlarimizga ko'ra, sayyohlarning atigi 20 foizi teatr, muzey yoki konsert tomoshalariga boradi. Qolgan qismi esa asosan tarixiy obidalarni tomosha qilish bilan cheklanmoqda.

Aslida Samarqandga kelayotgan xorijiy sayyohlar madaniyatni faqat me'morchilik orqali emas, balki sahna, musiqa, milliy urf-odat va an'analarni o'z ichiga olib olgan holda ko'rishni kerak emasmi? Vaholanki, madaniy turizm xorijiy sayyohlarni hududimizda ko'proq olib qolish, ularning sarf-xarajati oshirish va mahalliy ijdokkorlar uchun yangi asarlar yaratishga xizmat qiladi.

Xorijlik sayyohlarni jalb qilish bilan shug'ullanuvchi turoperatorlar oldindan bir yillik reja ishlab chiqib, faoliyatini shu asosda tashkil etadi, deydi viloyat turizm boshqarmasi mas'ul xodimi Dilshod Sa'dullayev. Albatta, bu rejalarga madaniy dasturlar ham kiritiladi, ammo ular sanoqli. Sababi, viloyatda sayyohlarga mo'ljallangan madaniy dasturlar kam. To'g'ri, Samarqandda iqtidorli aktyorlar, xonandalar, raqs guruhlari, sozandalar bor, lekin ularning aksariyati sayyohlar uchun qiziq formatda ishlamaydi. Masalan, Xiva shahrida sayyohlarning aksariyati milliy san'atimiz, folklor dasturlari hamda teatrlashtirilgan chiqishlarga faol jalb qilinadi. Bu esa

mazkur shaharda madaniy tadbirlar turistik paketning ajralmas qismiga aylanganini ko'rsatadi va biz ham ushbu tajribani sohaga joriy etishimiz kerak.

Viloyatimizdagi yirik sayyohlik kompaniyasi – "Shahrezada Sam Star Tour Discover" rahbari Tolib Jahongirov ham bu borada o'z fikrlarini bildirdi.

Yiliga o'n mingdan ortiq xorijlik sayyohga xizmat ko'rsatamiz, — deydi Tolib Jahongirov. — Asosan AQSH, Kanada, Xitoy, Yaponiya, Koreya hamda Yevropa va Osiyoning o'ng yaqin mamlakatlardan sayyohlarni jalb qilamiz. Ular Samarqandga faqat diqqatga sazovor tarixiy obidalarni tomosha qilish uchun-gina emas, balki bahavo maskanlarda sayohat qilish, madaniy herdiq chiqarish maqsadida keladi. Bu yo'nalishda mutaxassislarimiz bilan Xitoyda bo'lib, hamkasblarimizning ilg'or tajribasini o'rgandik. Jumladan, yerdah mahalliy va xorijlik sayyohlar uchun kuniga uch marta konsert dasturlari va teatr tomoshalari namoyish etiladi. Har bir seansa to'rt ming nafargacha tomoshabin jalb etiladi va bu madaniy tadbirlar sayyohlarda katta qiziqish uyg'otadi. Ana shu tajriba asosida biz ham turizm va madaniyat sohala-



rini integratsiya qilishga kirishdik. Hozirda viloyat madaniyat boshqarmasi bilan hamkorlikda sayyohlarni milliy san'atimiz va qadriyatlarimiz bilan yaqindan tanishtirish maqsadida Samarqand shahridagi 750 o'rinli konsert zalini ta'mirlayapmiz. Shuningdek, sahna ko'rinishlarini sayyohlar uchun yanada jozibador ruhda jonlantirish ustida ish olib boryapmiz.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, madaniyat va turizm sohalarini samarali integratsiya qilish uchun avvalo, aniq yo'nalishga ega, sayyohlar talabiga mos madaniy turizm dasturlarini ishlab chiqish zarur. Shu nuqtai nazardan qaralganda, viloyatda sayyohlarga manzur bo'ladigan madaniy dasturlar bormi, agar mavjud bo'lsa, nima sababdan shu kunga qadar madaniyat muassasalari va turoperatorlar o'rtasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilmagan, degan savol tug'iladi.

— Teatrlar, folklor jamoalari chiqish-

Mulohaza uchun mavzu

Korrupsiyaga qarshi qarashimiz qanday?

hayot kechirish xotirjam va baxtli yashashning asosiy mezonini ekanligini o'z ibrati, xatti-harakatlari orqali anglat-sa, bu oilada ulg'aygan farzand ta'madan yiroq bo'ladi, birovning haqini yemaydi. Yon-atro-fingizdagi oilalarga bir qarang bunga yoki teskari holatga o'zingiz ham guvoh bo'lasiz.

O'tgan yil yakunida davlatimiz rahbari parlament va xalqimizga murojaatnomasida 2026-yilda korrupsiya illatiga qarshi kurashish bo'yicha "favqulodda holat" e'lon qilinishi, barcha davlat idoralarida komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosar lavozimi joriy etilishini aytgandi. 26-yanvar kuni esa huquq-tartibot organlari faoliyati, xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda Prezident Administratsiyasi va davlat idoralarida komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi yo'lga qo'yilgani natijasida qisqa muddatda budjetga tushum, talon-torj, moliyaviy kamchiliklar bo'yicha 53 trillion so'm va tashqi savdo operatsiyasida 8 milliard dollardan ortiq qarzdorlik aniqlangani, 55 nafar shaxs qamoqqa olingani ta'kidlandi. Bu davlat mablag'ini hisobsiz yoki o'z qing'ir ishlarini hech kim bilmayapti-ku, deb yurganlar uchun ogohlik qo'ng'irog'i, "favqulodda holat" yilining dastlabki oyi xulosasi desak xato bo'lmaydi.

G'olib HASANOV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 760 nusxada chop etildi. Buyurtma 66. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LOMLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda